

BUXOROLIK ILK JADID SHIFOKORI – SIROJIDDIN HAKIM**Yodgorova Kamola Ibratovna***Osiyo Xalqaro Universiteti 1- bosqich tarix fanlari magistranti*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada XIX asr oxiri — XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Buxorolik ma'rifatparvar shifokor Mirzo Sirojiddin Hakimning hayoti, ilmiy merosi va jadidchilik harakatidagi o'rni yoritiladi. Tadqiqotda uning Sharq va Yevropa tibbiyoti an'alarini uyg'unlashtirgan holda Buxoroda zamonaviy tibbiy bilimlarni targ'ib etgani, "Tuhfai ahli Buxoro" asari orqali jamiyatdagi jaholat, eski ta'lim tizimi va turg'unlikni tanqid qilgani ko'rsatib beriladi.*

Kalit so'z; *Mirzo Sirojiddin Hakim, jadidchilik, Buxoro, jadid shifokori, ma'rifatparvarlik, islohotchi, Tuhfai ahli Buxoro, tibbiyot tarixi, yangi usul maktablari, ilm-fan rivoji.*

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda vujudga kelgan jadidchilik harakati ma'rifat, ta'lim, adabiyot bilan bir qatorda tibbiyot sohasida ham yangilanishlar sari yo'l ochdi. O'rta asrlardan beri Buxoroda hukmron bo'lib kelgan an'anaviy tabobat tizimi zamonaviy tibbiy bilimlarning rivojlanishidan orqada qolgan edi. Aynan shunday davrda sahnaga chiqqan Sirojiddin Hakim xalq salomatligi, gigiyena va ilmiy tibbiyot tamoyillarini targ'ib etgan ilk jadid shifokorlardan biri sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Sirojiddin Hakim Buxoro amirligi hududida an'anaviy tabobat vakili bo'lgan oilada tug'ilib o'sgan. Yoshligidan tibbiy bilimga qiziqqan u dastlab mahalliy tabiblar maktabida o'qidi, so'ngra Sharq tabobati an'alarining asoslarini puxta o'zlashtirdi. U yoshligidan arab, fors va turkiy tillarni chuqur o'rgangan, keyinchalik rus va yevropa tillarini ham egallagan. Uning ko'p tillilik qobiliyati o'sha davr faylasuflari, tabiblari va mutafakkirlarining asarlarini bevosita o'qish imkonini yaratdi. U Sharq tabobati — Ibn Sino, Jurjoniy, Razi merosiga tayanib o'qigan bo'lsa, bir vaqtning o'zida Yevropa tibbiyotining ilg'or yutuqlarini ham chuqur o'rgandi. Bu ikki ilm tizimining sintezi Sirojiddin Hakimni zamonaviy qarashli, yangilikka ochiq shifokorga aylantirdi. Ammo Sirojiddin Hakimni zamonning yangi ilmiy oqimlari qiziqтира boshladi.

Jadidlar targ'ib qilayotgan yangicha tafakkurga mos tarzda u: gigiyenaga oid ilmiy ma'lumotlarni o'rgandi, zamonaviy tibbiyot asarlaridan foydalanishga harakat qildi, rus va turk tibbiy tajribalarini kuzatib bordi. Shu tariqa u o'z davri uchun noyob bo'lgan — Sharq an'alari bilan Yevropa tibbiyoti elementlarini uyg'unlashtirgan mutaxassisga aylandi.

Sirojiddin Hakimning faoliyati xalq tabobatiga asoslanmagan, aksincha, ilmiy asoslangan yondashuvga tayangan. U o'z davrida eng dolzarb bo'lgan



muammolarga diqqat qaratdi. Amirlik davrida keng tarqalgan yuqumli kasalliklar – chechak, ichburug‘, bezgak kabi xastaliklarning sababi gigiyenaga rioya

qilinmasligi ekanini aytib, tozalik madaniyatini oshirishga harakat qildi.

Aholi orasida kasalliklar ko‘pincha “jin urdi”, “ko‘z tegdi”, “tabiat g‘azabi” singari diniy-tasavvufiy qarashlar bilan bog‘lanar edi. Sirojiddin Hakim esa ularning haqiqiy sabablarini – mikroblar, sanitariya yetishmasligi, noto‘g‘ri ovqatlanish – ilmiy asosda tushuntirdi. Jadidlar orasida keng tarqalgan “davolashdan ko‘ra oldini olish muhim” g‘oyasini tibbiyotga tatbiq etganlardan biri ham aynan Sirojiddin Hakim bo‘lgan.

U xalq orasida:

- bolalar parvarishi,
- to‘g‘ri ovqatlanish,
- toza ichimlik suvi,
- oddiy gigiyenik qoidalar

borasida targ‘ibot ishlari olib borgan. Bu, o‘z navbatida, jadidchilikning asosiy maqsadi – xalqni ilimga yaqinlashtirish – bilan uyg‘un edi.

Sirojiddin Hakim Buxorodagi ilk jadid shifokorlar safida turadi. U:Sharq tabobatining ijobiy jihatlarini saqlab, zamonaviy tibbiyotning yutuqlarini targ‘ib etgan, xalq salomatligiga oid masalalarga jadidlar ruhida yondashgan, sog‘liqni saqlashda ilmiylik va ma‘rifatni asosiy ustun qilgan. Natijada uning faoliyati Buxoro amirligi hududida tibbiyotning modernizatsiyalashuvi jarayoniga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Jadidchilik faqat maktablar va madaniyatda emas, balki tibbiyotda ham o‘z izini qoldirganini Sirojiddin Hakim misolida aniq ko‘rish mumkin. Sirojiddin Hakim shifokor sifatida bir necha yo‘nalishda faoliyat yuritgan:

- An'anaviy va zamonaviy tibbiy bilimlarni qo‘shgan U o‘sha davr shifokorlaridan farqli ravishda: kasalliklarni diagnostika qilishda ob‘yektiv usullar (puls, nafas, tana harorati, alomatlar tahlili) oddiy sanitariya-gigiyena choralarini targ‘ib qilish yuqumli kasalliklarning oldini olish usullarini qo‘llagan.

-.Xalqqa bepul yoki arzon davolash xizmatlari bergan

O‘sha paytda ilmiy shifokorlar juda kam bo‘lgan. Sirojiddin Hakim: aholining turli qatlamlarini qabul qilgan,o‘sha davrdagi eng keng tarqalgan kasalliklar — bezgak, zaxm, ich terlama, tumov, oshqozon-ichak kasalliklarini davolagan,ko‘pincha bepul maslahatlar va davolarni tavsiya qilgan.

-Profilaktika va gigiyena targ‘ibotchisi

Uning jadidlik ruhidagi eng muhim ishlari:tozalik,ichimlik suvi gigiyenasi,bolalar salomatligi,sanitariya qoidalari haqida xalq orasida tushuntirishlar berishdan iborat bo‘lgan. ----Jadidchilik bilan bog‘liq tibbiy islohotlari

Sirojiddin Hakimning shifokorlik faoliyati jadidchilikning asosiy maqsadlari bilan chambarchas bog‘liq:

- Yangi maktablarda tibbiy bilimlar berish





U jadid maktablarida:anatomya,gigiyena,inson salomatligi,oddiy tibbiy ko'nikmalar

kabi fanlarni o'qitishga takliflar bildirgan.

-Tibbiyotning xalq orasida ommalashuvi

Uning sa'i-harakatlari tufayli Buxoroda:zamonaviy tibbiyotga nisbatan ijobiy qarash shakllangan,xalq tabiblari bilan zamonaviy shifokorlar o'rtasidagi farq tushuntirilgan,ayollar va bolalar sog'lig'i alohida e'tiborga olingan.

U Buxoroda yangi o'zbek ziyolilari shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan shifokorlardan biridir.

Xulosa

Sirojiddin Hakim Buxoro tarixida nafaqat tabib, balki ma'rifatparvar shifokor sifatida ham alohida o'rin egallaydi. Uning:

- ilmiy tibbiyotni targ'ib qilishi,
- gigiyena va sanitariya haqidagi qarashlari,
- xalq salomatligini yaxshilashga qaratilgan tashabbuslari

jadidchilik harakatining sog'liqni saqlash yo'nalishidagi ilk yirik bosqichini tashkil etdi. Shu bois u Buxoroning modern tibbiyot sari intilishida asosiy poydevor qo'ygan shaxs sifatida e'tirof etiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Аҳмедов, Б. Жадидчилик ҳаракати ва унинг намояндалари. — Тошкент: Фан, 1999.
2. Зиёев, Х. Туркистонда миллий уйғониш ҳаракати. — Тошкент: Шарқ, 2000.
3. Аъзамхо'jaев, М. Бухоро амирлигида тиббиёт тарихи. — Бухоро: Наврўз, 2013.
4. Норматов, М. Жадидлар мероси ва маърифат тарихи. — Тошкент: Маънавият, 2018.
5. Бартольд, В.В. Туркестанский край и его прошлое. — Москва: Наука, 1963.

